



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR  
**№35**

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”  
14-ҚИСМ**

---

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»  
ЧАСТЬ-14**

---

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF  
UZBEKISTAN»  
PART-14**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]**

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари”** мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 31 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН**

<b>1. Raximova Dilafruz</b>	
TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING BOLALARDA ESTETIK VA BADIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI .....	7
<b>2. Bonazarova Rohat Hakim qizi</b>	
RUS TILI DARSLARINING ZAMONAVIY USULDA O'TILISHI .....	8
<b>3. Yuldasheva Muxabbat Ro'zmetovna</b>	
TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH .....	9
<b>4. Норбутаева Диляфруз Абдурасуловна</b>	
РАЗВИТИЕ ДИЗАЙНЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ .....	11
<b>5. Atamurodova Fotima Ziyodullayevna</b>	
AMALIY BEZAK SAN'ATINING RAMZIY TOMONLARI .....	13
<b>6. Latipova Durdonga Sayidaliyevna</b>	
O'QUVCHILAR BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA RASSOMCHILIK TO'GARAKLARINING AHAMIYATI VA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR .....	14
<b>7. Nizamiddinova Albina Rinatovna</b>	
TASVIRIY SAN'AT VA TASVIRIY SAN'AT FANINING MOHIYATI.....	16
<b>8. Nurmatova Mahbuba Obloqulovna</b>	
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....	18
<b>9. Qalandarova Shodiya Ergashboy qizi</b>	
MANZARA JANRIDA KOMPOZITSIYASINING YARATILISHI .....	20
<b>10. Sabirova Maqsuda Reyimberganovna</b>	
TASVIRIY SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	22
<b>11. Samandarova Durdonga Inoyat qizi</b>	
АМАЛИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРДА ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....	24
<b>12. Turdiyeva Gulniso Amonovna</b>	
SHARQ ME'MORCHILIK SAN'ATI. MINIATYURA SAN'ATI TARIXI MAVZUSINI O'RGANISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR .....	26
<b>13. Xolova Feruzaoy Murodnazarovna</b>	
TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANIDAN KO'RGAZMALI QUROLLAR TAYYORLASH. ....	28



## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

### TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING BOLALARDA ESTETIK VA BADIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING ROLI

Raximova Dilafruz

Xorazm viloyati Urganch tumani 15-maktabning  
tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Telefon:+998975120095

E-mail:dilyadilya796@gmail.com

**Annotatsiya:** Tasviriy san'at o'quvchilarning har jihatdan yetuk bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarning estetik va badiiy tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, badiiy did, estetika, estetik va badiiy didni o'stirish, estetik tarbiya, san'at

«Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlаримизнин odob axloqi,yurish turishi,bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli,yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz,qanday ulug' zotlarning avlodimiz,degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib,o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya,tarbiya va tarbiya hisobidan» SH.M.Mirziyoyev

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga oid elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi.Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi.Bu ularda estetik did va badiiy qobiliyatlarini o'stiradi. Bog'chada tasviriy san'at mashg'ulotlarining bir qator vazifalari bor.Biz ularni shartli ravishda ikki qismga bo'lamiz:

1. Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy ijodiy qobiyyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari bilan tanishtirish rasm ishlash ,haykal yasash, badiiy qurish va yasash yuzasidan elemantlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamatlash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishga o'rgatish.

2.Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari.Ular :borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqlol mafkurasiniamalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash. Bog'chada tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshadi:

- Bolalarning tabiat, san'at va hayotdagi go'zalliklarini idrok etishga o'rgatish;
- o'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go'zallikni xunuk voqeа narsalardan farqlay bilishga o'rgatish:

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. «Mana buyuklar »kanali
2. Internet malumotlari



## RUS TILI DARSALARINING ZAMONAVIY USULDA O'TILISHI

Bonazarova Rohat Hakim qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 11-maktabi

Rus tili fani o'qituvchisi

Telefon: +998 717 18 69

**Annotatsiya:** Ushbu maqola rus tilida dars jarayoni va qo'shimcha mashg'ulotlarda turli vositalar, ya'ni zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganishning samaradorligi, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi, o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlash, shu bilan birgalikda darsning zamonaviy usullaridan foydalanuvchi vositalar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** rus tili, zamonaviy texnologiyalar, metod, usul, dars, interfaol o'yinlar, noan'anaviy.

Ertangi kunimizning rivojlanishi, yoshlarimizning har tomonlama bilim olishi, chet tiliga bo'lgan e'tibor hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. O'quvchilarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir.

Dars jarayoni va qo'shimcha mashg'ulotlarda turli vositalar, ya'ni zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Ushbu texnologiyalardan foydalanilsa, maqsadga muvofiqdir:

1. Kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi rus tilidagi videoroliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi mumkin;

2. Ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitonfon va kassetalardan foydalanish;

3. CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning rus tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi.

Darsdagi mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilimini mustahkamlashda va o'quvchilarni qiziqtirishda turli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixoglarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Rus tili darslarida didaktik o'yinlar vositasida darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. O'yin o'quvchilarida, ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o'qituvchular, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usuldir.

So'nggi yillarda maktablarda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda. Bular nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakl va usullari, o'quv jarayoniga yangicha yondashuvdir. Chet tillarini o'qitishining asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o'zlashtirishga o'rgatishdir. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchining tilni amaliy o'zlashtirishi uchun shart-sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini namoyon etish imkonini beradigan o'qitish usullarini tanlashdan iborat. O'qituvchining vazifasi chet tillarini o'qitish jarayonida o'quvchining bilim faolligini faollashtirishdir. Hamkorlikda o'qitish, loyiha metodologiyasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qitishga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda yordam beradi, bolalarning qobiliyatlarini, ularning bilim darajasini hisobga olgan holda o'qitishni individuallashtirish va differentialshtirishni ta'minlaydi.

### Foydalilanadigan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Meliqo'ziyeva. Ta'limning interfaol metodlari vositasida darso'tish bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik tavsija. Toshkent. 2014-yil.

2. A. Absalamov. Rus tilini o'rganishning eng samarali usullari. O'quv metodik qo'llanma. Toshkent. 2013-yil.



TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR  
ASOSIDA O’QITISH

**Yuldasheva Muxabbat Ro’zmetovna**  
Urganch tuman 19-son umumiy o’rta ta’lim maktabi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta’lim tasviriy san’at darslarda yangi pedagogik texnologiyani samarali qo’llash haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** O’qituvchi-novator bo’lishi, oldinda borishi, ijodiy shaxs bo’lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish ,ichki dunyosi boy

Tasviriy san’at ta’limida yangi pedagogik texnologiyani samarali qo’llash, pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat o’qituvchining ijodkorligiga, darsning didaktik qurilmasiga, balki o’qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy tayyorgarligiga ham bog’liq. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ochiqlikni, boshqalar fikrining u to’g’ri yoki noto’g’ri bo’lishidan qat’i nazar tan olinishini, jarayonda o’qituvchi bilan bir vaqtida tinglovchilarning faol ishtiroti ta’minlanishini bildiradi. O’qituvchining innovatsion faoliyatni turli xildagi qarashlarning to’qnashuvi hisobiga uning o’zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko’zda tutadi.O’qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog’liq bo’lib, unga o’qituvchining tinglovchi bilan muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg’araz munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tanlanishi, dars o’tishning zamonaviy texnik vositalarining mavjudligi va o’qituvchining ulardan foydalanish ko’nikmalariga ega ekanligi kabiladir. Bunday shart-sharoitlarning mavjudligi natijasida o’qituvchi o’z bilimlar faoliyatini ta’minlaydigan keng qamrovli mavzu(motiv)ga ega bo’ladi. O’qituvchi faoliyatida o’z-o’zini faollashtirish, o’z ijodkorligi, yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi motivlar tasviriy san’at o’qituvchisi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Dars jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash yo’nalishida ko’plab olimlar tomonidan o’tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko’ra o’qituvchining innovatsion faoliyatida uning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yetarli kasbiy tayyorgarlikka ega bo’lgan ustoz-o’qituvchilar quyidagi tafsiflarni o’zlarida mujassamlashtirgan bo’lishadi:

- mo’ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o’zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik darajalarini aniqlash;
  - yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
  - yangilikka tasviriy san’at fanlarini o’qitishning innovatsion holatlarida to’g’ri baho berish.
- O’qituvchining tasviriy san’at fanlarini o’qitishdagi innovatsion faoliyati yangilikni tahlil qilish, unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyanlarni shu asosda shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni o’z ichiga qamrab oladi. Tasviriy san’at o’qituvchisi innovatsion faoliyatining samaradorligi uning shaxsiy pedagogik sifatlari bilan bevosita bog’liq ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Tadqiqotlar natijasida o’qituvchining innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo’lgan asosiy xislatlari aniqlangan va ular quyidagilardan iborat:
  - shaxsning ijodiy-motivatsion yo’nalganligi. Bu-qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlarga intilish, peshqadamlikka intilish, o’z kamolotiga intilish va boshqalar;
  - kreativlik. Bu — xayolot (fantastlik), faraz, qoliplardan xoli bo’lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o’zicha mushohada yuritish, refleksiya;
  - kasbiy faoliyatni baholash.

Bu-ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati, pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati, mualliflik konsepsiysi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni, ijodiylikni tushunadi. Yangilik pedagogik yangilik me’yori sifatida o’zida taklif qilinadigan yangi, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo’llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko’ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar.Pedagogik yangilik o’z mohiyatiga ko’ra ommaviy tajribalar mulki bo’lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o’qituvchilarining faoliyatiga olib kiradi. Keyingi



bosqichda - sinalgandan va obektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi. O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini akllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

O'qituvchi-novator bo'lishi, oldinda borishi, ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim: innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamонавиy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining innovatsion faoliyatini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan shart-sharoitlarni yaratish, dars sifati va samaradorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.



## РАЗВИТИЕ ДИЗАЙНЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Норбутаева Дилафруз Абдурасуловна**  
соискатель Узбекского научно-исследовательского  
института педагогических наук  
Телефон: +998(97)433 80 47  
dilafruznorbutaeva80@gmail.com

**Аннотация.** Актуальность данной статьи связана с тем, что во всем мире идет непрерывный процесс совершенствования профессионального образования. В ней проанализированы содержание и структура дизайнерской компетентности будущих педагогов профессионального обучения.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, дизайнерская компетентность, студенты, профессиональное обучение, проектный подход, профессиональные умения.

**Annotation.** The relevance of this article is due to the fact that all over the world there is a continuous process of improving professional education. It analyzes the content and structure of the design competence of future teachers of vocational training.

**Key words:** competence-based approach, design competence, students, vocational training, project-based approach, professional skills.

Изменения социально-экономических условий усиливает потребность высших учебных заведений в высококвалифицированных специалистах. Данное положение в полной мере относится к профессиональной подготовке специалистов в области дизайн-образования, поскольку динамизм современных общественных преобразований позволяет отметить проникновение дизайна во все сферы человеческой деятельности и охватывание всех аспектов материально-пространственного окружения человека. Это дает основание для совершенствования процесса подготовки будущих педагогов профессионального обучения (дизайн) к осуществлению будущей профессиональной деятельности, его адаптации к быстро меняющимся условиям. Это подтверждает актуальность рассматриваемой проблемы на социально-педагогическом уровне.

В настоящее время отмечается введение компетентностного подхода в практическую составляющую образования, в связи с этим проблема развития компетентности студентов вузов значительно актуализировалась. В педагогике высшей школы накоплен достаточный опыт по развитию компетентности у будущих преподавателей, однако при всем многообразии работ, посвященных компетентности педагога, мы вынуждены констатировать, что исследований, которые бы рассматривали собственно аспект развития дизайнерской компетентности у педагогов профессионального обучения (дизайн) в учебной деятельности не проводилось: в частности не определено понятие «дизайнерская компетентность будущих педагогов профессионального обучения (дизайн)», не раскрыты содержание и структура исследуемой компетентности, не выявлены критерии и уровни развития дизайнерской компетентности, отсутствует научно обоснованная педагогическая модель развития дизайнерской компетентности у будущих педагогов профессионального обучения (дизайн). Недостаточная теоретическая разработанность рассматриваемой проблемы предопределяет научно-теоретический уровень актуальности названной проблемы.

Дизайнерская компетентность – это показатель профессиональной культуры личности будущего специалиста, который невозможно сформировать в рамках одной учебной дисциплины, отсюда система его профессиональных знаний и умений должна носить интегративный характер [1]. В целях успешного развития дизайнерской компетентности будущих педагогов профессионального обучения (дизайн) мы считаем целесообразным применение комплекса междисциплинарных профессионально-ориентированных задач. Задачи условно разделены на три группы: предметно-когнитивные (содержат личностный компонент в минимальной степени, в них рассматриваются ситуации, связанные с получением и использованием профессиональных знаний); практико-функциональные задачи (направлены на воссоздание различных видов предметной деятельности с заранее известными результатами, в ходе решения которых студенты осваивают профессиональные умения, принимают участие в групповой работе); практико-ориентированные задачи (направлены на совокупность самостоятельных творческих решений в ситуации,



имитирующей профессиональную дизайн-деятельность) [2].

Содержание и структура дизайнерской компетентности будущих педагогов профессионального обучения (дизайн) определяется спецификой профессиональной деятельности будущего специалиста. Согласно требованиям Государственного образовательного стандарта высшего профессионального образования, квалификационной характеристике и выполняемым видам профессиональной деятельности, в структуре дизайнерской компетентности будущих педагогов профессионального обучения (дизайн), мы выделяем художественно-эстетическую, производственно-технологическую, проектную, техническую, научно-исследовательскую, организационно-экономическую и коммуникативную компетенции, а также профессионально значимые качества личности: эстетический вкус, проектное мышление, креативность, самостоятельность, а также опыт учебно-профессиональной дизайнера деятельности. Под развитием дизайнера компетентности будущего педагога профессионального обучения (дизайн) мы понимаем последовательный процесс качественного изменения личности студента, направленный на развитие компонентов дизайнера компетентности, связанный с повышением существующего уровня дизайнера компетентности будущего специалиста в процессе профессиональной подготовки.

Подготовка будущих педагогов профессионального обучения (дизайн) невозможна без адекватной теоретико-методологической основы, отражающей текущие изменения в социально-экономической, образовательной и научной сферах. Нами проанализированы теоретико-методологические подходы общенаучного (системный, деятельностный, комплексный, компетентностный, синергетический, культурологический и др.) и конкретно-научного уровня (маркетинговый, технологический, модульный, заданный, антропологический, личностно ориентированный, партисипативный, дименсиональный и др.) уровней в целях возможности их использования в аспекте исследуемой проблемы.

Результатом подготовки будущего специалиста в высшем учебном заведении, согласно документам по модернизации образования, должна выступить его компетентность в профессиональной деятельности. Компетентностный подход акцентирует внимание на результате образования, причем в качестве результата рассматривается не сумма усвоенной информации, а способность человека действовать в различных проблемных ситуациях.

Компетентностный подход (Л.И. Анцыферова, Э.Ф. Зеер, И.А. Зимняя, Л.В. Львов, Р.П. Мильруд, Г.К. Селевко, А.В. Хоторской) связан с заказом на образование со стороны работодателей: тех, кому нужен компетентный специалист. Этот подход акцентирует внимание на результатах образования, причем, в качестве результата рассматривается не сумма усвоенной информации, а способность человека действовать в различных проблемных ситуациях. Под компетентностным подходом мы понимаем целенаправленность и целезаданность образовательного процесса, при котором компетенции задают высший обобщенный уровень знаний, умений и навыков будущего педагога профессионального обучения (дизайн) [1].

Проектный подход основывается на теории проектного обучения (Дж. Дьюи, У. Килпатрик, В.В. Рубцов, В.Д. Симоненко и др.) [2]. При развитии дизайнера компетентности будущего педагога профессионального обучения (дизайн) проектный подход позволяет специально организовать преподавателем и самостоятельно выполнить обучающимися комплекс действий в процессе планирования и выполнения постепенно усложняющихся практических задач и проектов, завершающихся созданием готового продукта. Дидактическая ценность проектного подхода при развитии дизайнера компетентности будущих педагогов профессионального обучения заключается в использовании самостоятельной проектно-художественной деятельности студентов как основного средства развития их учебно-профессиональной дизайнера компетентности.

#### **Список литературы:**

1. Белкин А.С. Компетентность. Профессионализм. Мастерство. Челябинск: ОАО «Южурал. кн. изд-во», 2004.
2. Бершадский М.Е. Интеллект или креативность? / Народное образование. 2002.
3. Выпряжкина И.Б. Психолого-педагогическая компетентность учителей: динамика, развитие, оценка при аттестации. Автореф. канд.псих.наук. 19.07.07. – М., 2004.



## AMALIY BEZAK SAN`ATINING RAMZIY TOMONLARI

Atamurodova Fotima Ziyodullayevna  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab  
Tasviriy san`at fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amaliy bezak san`atining ramziy tomoni, naqsh namunalarida qo`llanadigan turli geometrik shakllarning ham ramziy ma`nolari, xalq amaliy bezak san`atida qo`llanadigan ranglarning o`ziga xos ma`no-mazmun kasb etishi, amaliy bezak san`atida qo`llanadigan ramziy shakllar va ularning ma`nosи, insonlar hayoti bilan bog`liqligi haqida ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** tasviriy san`at, amaliy san`at bezagi, naqsh, ramz, rang,

Naqsh namunalarida qo`llanadigan turli geometrik shakllarning ham ramziy ma`nolari bor. To`rtburchak ishonch ma`nosini anglatadi. Bir- biriga qarashtirib tikilgan, to`qilgan va chizilganligi g`ishtdan qurilgan imoratning mustahkamligi, unda insonlarning xotirjam yashah ma`nosini anglatadi. Shuning uchun naqshda gullar, yo`llar – islimiyl elementlar, girihda qo`llanadigan geometrik shakllar bir-biri bilan qalashtirib, aralashtirib tasvirlanadi. Boisi, insonlar hayoti bir-biri bilan bog`liq: bir sayyora, bir mamlakat, bir maktab, bir sinf, bir tashkilot, bir oilada yashaydi, mehnat qiladi, o`qiydi.

Naqqoshlik san`atida to`rt tomoni teng to`rtburchak kvadrat (lotincha “quadrates”, arabcha “murabba”) – abadiylik, yorug`lik; romb – ona Yer; besh qirrali yulduz – dunyoning o`tkinchi ekanligi; quyosh – hayot ramzi; bulut, olov – g`oliblik ramzi; aylana – baxt, insonlarni yovuz niyatlardan qaytarish; yarim oy (oygul), Humo qushi – baxt-iqbol; yangi chiqqan oy – musulmonli ramzi; qalampir – yomon ko`zdan asrash; olma – muhabbat; bulbul – sadoqat; oq kabutar – tinchlik; boyo`g`li (boyqus) – hushyorlik; tuki – ayyorlik, makkorlik; sher – mardlik, jasorat; ohu – noziklik, go`zallik, himoyasizlikni anglatadi.

Xalq amaliy bezak san`atida qo`llanadigan ranglar ham o`ziga xos ma`no-mazmun kasb etadi. Qora – motam, sariq – ayriliq, oq – musaffolik, tozalik, yorug`lik, baxt; zangori – oliv e`tiqod; ko`k – moviy osmon, tinchlik; qizil – g`alaba, shodlik va xursandchilik; yashil – ona tabiatni ifoda etadi.

Amaliy bezak san`atida qo`llanadigan ramziy shakllar va ularning ma`nosи insonlar hayoti kabi tarixiy va rang-barang, insonlar hayoti bilan bog`liq. Insonlarning hayoti, turmush tarsi, mahalliy sharoiti turli-tuman bo`lganligi uchun amaliy san`atda qo`llanadigan ramziy shakllari, rang va tasvir usullari ham turlicha bo`ladi. Misol uchun, naqqoshlik san`atida Farg`ona, Xiva, va Toshkent naqsh maktablari mavjud. Ularda o`zbek xalq amaliy bezak san`tining xususiyatlari bilan birga mahalliy o`ziga xoslik bor.

Bu maktablarning kompozitsiya uslubi va rang berishdagi o`ziga xosligida Farg`ona maktabi naqshlarida chetlari chiroqli qilib aylantirilgan, ranglar esa qizil va yashil bo`yoqlarining yo`yingan tuslari bilan bo`yaladi. Xorazmda esa usta musavvirlar naqsh yuzasini novda-yo`l va g`uncha, shuningdek, geometrik naqshlar bilan to`ldirib asosan, moviy rangli bo`yoqlar bilan naqsh kompozitsiyalatini yaratadilar. Toshkent kabi naqshlarida ranglar koloritining qat`iyligi, naqsh elementlari, ayniqsa, gullar, barglarga mehr bilan targ`il berish orqali ular jozibasi ta`minlanadi. Ular bir xildagi ranglarning turli tuslarini qo`llashga ko`proq e`tibor qaratadilar.

### Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. V. To`xanova. Amaliy san`at turlari. “Durdona” nashriyoti. Buxoro.2020-y.
2. S. Bulatov. O`zbek xalq amaliy bezak sanati. Toshkent. 2020-yil.
3. A. Sulaymonov. Tasviriy san`at. 7-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.



**O'QUVCHILAR BO'SH VAQTLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA  
RASSOMCHILIK TO'GARAKLARINING AHAMIYATI VA MASHG'ULOTLARINI  
TASHKIL ETISH USULLARI BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR**

**Latipova Durdona Sayidaliyevna**  
Navoiy shahar 5-IDUM tasvirit san'at va  
chizmachilik fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarni bo'sh vaqtalarini mazmunli tashkil etishda rassomchilik to'garaklari o'rni, mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalaniladigan usullar bo'yicha uslubiy tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** besh tashabbus, fan to'garaklari, badiiy to'garaklar, rassomchilik to'garagi, tasvir, tasavvur....

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, o'quvchilarning asosiy vaqtı maktablarda ta'lim-tarbiya olish bilan o'tadi. Kelajakka qadam ham aynan maktab davridan boshlanadi. Agar biz maktabda har bir o'quvchini bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etilishida ko'makdosh bo'lsak, ota-onalar bilan bu borada birlashsak, oqil-u dono, yurt koriga yaraydigan yoshlar – kelajak bunyodkorlari taqdiriga dahldor bo'lamiz. Sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatdir.



Mana shu jarayonda davlat rahbari tomonidan tarixiy ahmiyatga ega bo'lган tashabbus, ya'ni ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Birinchi tashabbus yoshlarning aynan musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini o'sishiga, iste'dodini yuzaga chiqarishiga, farzandlarimizni san'atga oshno qilib, yuksak did sohibi etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Kamolotga yetaklovchi ushbu tashabbus doirasida maktablarda tashkil etilgan rassomchilik to'garaklari — o'quvchi yoshlarni birlashtirishga undash bilan birga hayot sabog'ini olishlari uchun ham eng katta mifik vazifasini o'taydi.

Tasviriy san'at va rassomchilik to'garaklarida mahoratni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish lozim. "Bu nimalarda namoyon bo'ladi ?" - degan savolga javob topish kerak. Savolning javobi esa, noan'anaviy materiallar va texnikalar yordamida mashg'ulotlarni tashkil etishda namoyon bo'lishidadir. Masalan, tiralish, monotip, cho'kish kabi murakkab texnikalardan foydalanish qobiliyati bolani tanlov holatiga soladi, uni texnikani o'zlashtirishda faol qiladi. Bu bir tomonidan bolaning predmetga bo'lган qiziqishini oshirishga, boshqa tomonidan esa tasvirni, kompozitsiyani yanada chuqurroq ochishga imkon beradi, asar yanada qiziqarli va yorqinroq bo'ladi. Bunday holda, texnikaning murakkabligi bolaga to'sqinlik qilmasligi uchun o'qituvchidan doimiy ravishda yordam olish kerak va yordam zarur va yetarli bo'lishi kerak, bola doimiy ravishda ishni o'zi bajarishi mumkinligiga ishonishi kerak. O'quvchida o'ziga bo'lган ishonchni yuzaga keltirish uchun "**Zinama-zina**" usul isamarali usul deb o'layman. Rassomchilik va tasviriy san'at



to`garak mashg`ulotlarida bu usuldan foydalanish ”oddiydan murakkabga” qadam tashlash kabi tashkillashtiriladi. Bunda o`quvchilar kichik guruuhlarga bo`linib, berilgan rasmlarni avval eskizini chizish, so`ng bo`yoq bilan ishslash malakalarini shakllantirish bo`yicha bahslashishadi.

Shuningdek, **”Tasavvur va tasvir” usuli** ham mashg`ulotlarni tashkil etishda o`quvchilarni qiziqtirish bilan birga ularni tinglab tushunish va tushunganlari asosida tasvir yaratish imkonini beradi. Bunda o`qituvchi o`quvchilarga biror bir hikoya, ertak yoki rivoyatni bayon qiladi. O`quvchi esa tasavvur qilgan voqeа-hodisa asosida o`z ijod mahsulini yaratadi. Namuna sifatida quyidagi rasmlarni ko`rsatish mumkin:



**”Zakovatli zukko” usulidan esa o`quvchilarning rang –tasvir bo`yicha bilimlarini sinovdan o`tkazish mumkin.** Bunda o`qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tezkor savollarga eng ko`p javob topgan o`quvchi mashg`ulotning zakovatli o`quvchisi deya e`tirof etilib, ”Zakovatli zukko” nishoni bilan taqdirlanadi.

Bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy o`quvchilarni ta`lim jarayoniga qiziqtirish muhim vazifa ekanligini uqtirib, ”Qadimiylar xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Maqsad gapni cho`zish emas, balki o`quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O`quvchi fandan-fanga o`tib tursa, turli bog`larda yurganga o`xshaydi. Birini ko`rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va kishi har bir narsada o`ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko`rishga qiziqadi , ko`zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keladi”, - degan edi. Buyuk bobokalonimiz ta`kidlaganidek, bir xillikdan qochib, xotiraga malol kelmaydigan usullardan foydalanib tashkil etilgan mashg`ulot esa o`quvchilar xotirasida abadiy saqlanib qoladi, albatta.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Tasviriy san`at ta`limi konsepsiysi. Toshkent, O`zPFITI, 1996.
2. Hasanov R. Maktabdatasviriysan`atnio`qitishmetodikasi. T.: «Fan», 2004.
3. Ziyonet.



## TASVIRIY SAN'AT VA TASVIRIY SAN'AT FANINING MOHIYATI

Nizamiddinova Albina Rinatovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

28-sonli maktabning Rasmi va  
chizmachilik fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarga tasviriy san'at fanini o'qitishdan maqsad va fanning vazifalari, yo'naliishlari keltirib o'tilgan. Shuningdek tasviriy san'at tushunchasi, san'at asarlari va allomalarining fikrlari berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, fan, asar, go'zallik, tassavvur, bo'yoq, haykal.

Insonlar azal-azaldan go'zallikka intilib yashaydi. Bu go'zallikni yaratuvchilari kimlar? Hech o'ylab ko'rGANmisiz? Atrofga nazar tashlang, turli tuman narsalar ya'ni bir-biridan hashamatli binolar, go'zal shaharlar, ajdodlarimizdan meros qolgan tarixiy me'moriy yodgorliklar, turli dekorativ bezaklar, pannolar, mashinalar, mebellar, gilamlar, pardalar, kiyim-kechaklar qo'yingki, atrofdagi bizni o'rabi turgan barcha-barcha narsalarni zamirida qaysi san'at yotadi deb o'ylaysiz? Bularning barchasining yaratilish asosi tasviriy san'at emasmi? Xo'sh, Tasviriy san'at o'zi nima? U qanday fan? U fan bizga nimani o'rgatadi? Endi shu savollarga javob izlaymiz.

“Tasvir” so'zi aniq qaysi so'zdan kelib chiqqani ma'lum emas, lekin uning ma'nosiga ko'ra tasvir bu suratga olish, tasvirlash, tavsiflash, biror narsani o'yma, quyma yoki chizma shakli demakdir. Endi “San'at so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, San'at bu- mehnat, mahorat, kasb- hunar ma'nolarini anglatar ekan. Bu ikki so'zni tom ma'noda birlashtiradigan bo'lsak qandaydir biror predmetni mohirlik bilan tasvirlash degan ma'noda, qisqacha olganda mohironalik mevasi desak ham mubolag'a bo'lmas ekan. Tasviriy san'at – eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. O.Gyotening so'ziga ko'ra „Tasvirlash bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir”. Yana bir boshqa namoyondaning so'zlariga ko'ra “Rasm o'qituvchisi bir vaqtning o'zida boshqa predmetlarning ham o'qituvchisidir”, - degan edi K.D.Ushenskiy.

„Tabiat yaratgan shakllarning barcha sifatlariga o'z san'ating bilan taqlid qilishga ustasifarang, bo'lmasang, yaxshi musavvir bo'lmosh'ing dargumon”. Bu zargarona so'z esa barchamizga tanish bo'lgan buyuk rassom va buyuk ixtirochi Leonardo da Vinci qalamiga mansubdir. Shu o'rinda savol tug'iladi qanday qilib, ham rassom, ham buyuk ixtirochi bo'lismumkin? Balki uning buyuk ixtirochiligiga sabab uning tasviriy san'at ilmini chuqur egallaganligidadir. Haqiqatdan ham biz qaysi bir faylasuf, olim, kashfiyotchi ixtirochi insonlarni hayoti va ijodini o'rganmaylik, ularning barchasini tasviriy san'atga oid bilimlari yetarli darajada bo'lganligini anglab yetamiz. Bu o'rinda yana ko'plab allomalarimizning ham qo'lyozmalarida tasvirlar orqali ko'plab ma'lumotlar chizib qoldirilganligini bilamiz.

Tasviriy san'at - o'quvchilar uchun chizishni bo'yashni o'rgatuvchi fan. Ba'zi odamlar uchun esa bekorga vaqt sarflaydigan mashg'ulot turi. Yana ba'zi qo'shtirnoq ichidagi ziyoli insonlar uchun faqat rassom bo'lismumkin. Ammo biz tasviriy san'at o'qituvchilari uchun esa o'quvchilarni tasavvur qilishga, idrok etishga, yaratishga, ixtiro qilishga, sabrli bo'lismumkin. Biroq bu ta'rif va tushunchalarni faqatgina yuqorida go'zalliklarni yaratuvchilargina to'g'ri anglab yetishadi. Bundan tashqari tasviriy san'at fani barcha fanlar bilan uzbek bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi, jumladan, algebra, geometriya, biologiya, tarix, texnologiya, qisqa qilib aytganda barcha fanlar bilan uzbek bog'liqidir. Tasvirlar orqali barcha fanlar oson tushuntiriladi. Bu fikrimizini isboti uchun oddiygina bir geometriya fanini oladigan bo'lsak. Aytaylik bizga bir masala berildi. Unga ko'ra berilgan qandaydir bir shaklni hajmini topish so'ralgan bo'lsa, biz bu shakl haqida yetarlicha tassavvurga ega bo'lsakgina bu masalaga javob topa olamiz. Yoki boshqa fanlarni olsak ham, ularda turli xil rasm va chizmalarning aks ettirilishi, shu fanni tushuntirishda katta rol o'ynaydi.

Tasviriy san'at bu hayotimizning ajralmas qismi, atrofimizni o'rabi turgan olam go'zalliklarini yaratuvchi asos hisoblanadi. Tasviriy sana't tarixiga nazar tashlaydgan bo'lsak, u bizni tarix bilan bog'laydi. Ilk odamlar bir-birlari bilan tasvirlar orqali gaplashishganligi ma'lum. Qadimgi odamlar qanday yashaganliklarini ular chizib qoldirgan qoya toshlardagi rasmlardan bilib olish mumkin. Shuhrat dunyoga mashhur qadimgi Varaxsha, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Afrosiyob kabi shahar qoldiqlari va saroy devorlaridagi monumental san'at namunalari chizilgan tasvirlarda rang va



bo'yoqlarning ramziy ma'nolarda qo'llanilganligini, yoki o'sha davr voqealari aks ettirilganligini guvohi bo'lamiz. Tasviriy san'atga turli podsholiklar davrida ham katta ahamiyat berilib, turli ijodiy namunalar yaratildi. Bularga Amir Temur va uning avlodlari davrida ham katta e'tibor berilib, ko'plab go'zallik namunalari yaratilgan. Bu namunalar barcha jahon ahlini jalb qilib, lol qoldirmoqda. „Sharq Rafaeli” deb tan olingan buyuk miniatyurachi rassom K.Behzod asarlari hozirda chet el galereya va kutubxonalarida saqlanmoqda. Hozirgi davrda ham tasviriy san'at va san'at turlariga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Bu fikrga qo'shimcha qilib Respublikamizning tuman va shaharlaridagi San'at maktablarining qurilishi va u yerda qiziquvchi yoshlarning ta'lif olayotganligi, yoki Prezident SH.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-martda “5 tashabbus” bo'yicha qaror qabul qilinganligini misol keltirish mumkin.

Tasviriy san'atga qiziquvchi yoshlarni juda ko'pchilikni tashkil qiladi, o'quvchilar ichida tasviriy san'at mashg'ulotlarini alohida yo'nalishlariga, ya'ni qaysidir o'quvchi naqsh chizishga qiziqsa, qaysidir o'quvchi haykal ishlashga, qaysidiri esa darsda binolarni tasvirlashni xohlashadi, ammo ularni har biri bilan alohida ishlash uchun ma'lum yetarli sharoit talab etiladi. Tasviriy san'at juda keng tarmoqlarga bog'langanganligi sababli barcha hunar va ixtiolar shuningdek yaratuvchanlikning asosi ekanligi uchun uni o'quvchi yoshlarga yetarli darajada o'rgatish biz o'qituvchilarning eng muhim vazifalaridan biridir. Agarda biz mana shu vazifani sidqidildan bajara olsak, keljakda o'ta yuksak darajadagi buyuk iste'dod egalarini yetishib chiqishiga zamin yaratgan bo'lardik. Zero, bunday insonlarning bizning qo'limizda tahsil olib, bizning ko'magimizda kamolga yetishi esa biz uchun eng katta iftixordir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Oydinov “O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar”.
2. N.A.Ziganshina „Musavvir va kitob”.
3. Z.Egamberdiyev, R.Hasanov, N.Abdullayev, S.Mujdaboyev „Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi”.



## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'YIN TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Nurmatova Mahbuba Obloqulovna

Qiziltepa tumani 21-umumta'lim  
maktabi tasviriy san'at o'qituvchisi

**Kalit so'zlar:** silindr, konus, prizma, piramida, shar, parallapiped, geometrik jism sirtlar.

O'yin bolalarning tabiiy hamrohi bo'lib, ularga mammunlik va quvonch baxsh etadi. Bolalar o'yin orqali dunyonni, ya'ni tevarak-atrofni biladilar, mehnat qilishni o'rganadilar, ya'ni tarbiyalanadilar. Ular o'yinlarda o'zlari sevgan qaxramonlar qiyofasi va holatiga kirib, rostgo'ylik, ziyraklik, chaqqonlik, bardoshlilik, tadbirkorlik va g'alabaga intilish kabi fazilatlarni namoyish qiladilar. Bolalarning barcha o'yinlari o'ziga xos jozibaga ega va shuning uchun ular zo'r ishtivoq bilan o'ynaydilar. O'yin bolalarning organizmida katta o'zgarishlar ro'y berishga ham sabab bo'ladi. O'yinda vujudga keladigan vaziyatlar bolalardan turli masalalarni tezkorlik bilan hal etishni talab qiladi. Shunday paytlarda bola o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solib, mushkul ahvoldan qutulishga tirishadi. Shuning uchun o'yinlar bolalarning o'sishida muhim o'rin tutadi, ularni mustaqillikka undaydi.

O'yin qoidalari asrlar davomida halq tomonidan yaratilgan, binobarin o'yining tarbiyaviy ahamiyatga ko'proq e'tibor berilgan. Shunga ko'ra maroq bilan ko'p o'ynaydigan bolalar zexni o'tkirligi bilan ajralib turadi. Boshqalarga nisbatan aqli, chaqqon, kuchli va hozirjavo broq bo'lishga intiladilar. Shu sababli bolalar ko'pincha birgalashib o'ynashni yoqtiradilar va bunday paytlarda ularning o'rtoqlik, bir-birini himoya qilish, jamoachilik kabi fazilatlari rivojlanadi. O'yin bolalar o'zini o'zi tarbiyalash tabiiy vazifda amalga oshadi. Bolalar olmagan tirishqoqlik, talabchanlik, epchillik kabi sifatlarini o'yinlarda yaqqol namoyish qiladi. Bolalar o'yinlarda o'zlarini erkin tutadilar va o'zlariga juda yuqori talablarni qo'yadilar, qiyin vaziyatlardan o'zlaricha chiqishga harakat qiladilar. Tabiiyki, o'zicha harakat qilgan har qanday qiyinchilikni, mushkullikni engishga qodir bo'ladi.

O'yinlarda sho'xlik qilish, ortiqcha hayajonlanish bolalar uchun tabiiy holdir. Shuningdek, ular taqlidchan bo'ladi, hayolga kelmagan narsalarni o'ylab topadilar. Shuning uchun ular chizmachilikdan didaktik o'yinlar o'tkazilayotgan plakat chizmalardagi tasvirlar yoki modellarni yuzaki idrok qilib, boshqa narsalarga o'xshatishlari tabiiydir. Bolalarning bu xususiyatlardan foydalanish maqsadida, detallarni hayotdagi narsalarga taqqoslash orqali ularning mustahkam idrok qilishiga erishish kerak. Lekin odamlar o'z yoshiga mos o'yinlarnigina o'ynaydilar. Masalan, bolalar harakatli o'yinlarga, kattalarga esa aqliy faoliyatni talab qiladigan o'yinlarga moyil bo'ladilar. Har xil o'yinlar mayjud va ular halq pedagogikasining mahsuli bo'lib, o'qituvchilar ham dars jarayonida shu samarali foydalanishlari mumkin. Ma'lumki, chizmachilik 7-8 sinflarda o'qitiladi va bu yoshdagi bolalar o'yining mazasiga tushungan ya'ni o'yinqaroq bo'ladilar. Shuning uchun darslarda tinch o'tirib chizmalarni chizishga sabr-toqat qila olmayilar, tezda toliqa boshlaydilar.

O'quvchilarning yuqorida xususiyatlarini o'rganib chizmachilik darslarida o'yin elementlaridan foydalanishni lozim topdik. O'qituvchi o'quvchilarning zerikkanini sezishi bilan 5-6 daqiqalik o'yin o'tkazishi kerak. Chizmachilikdan o'tkaziladigan sinfdagi barcha o'quvchilar diqqatini qisqa muddatli o'yinga jalb qila bilish zarur. Qisqagina o'yinda ishtiroy etishga, fikrlashga intilishlari ularning butun his-tuyg'ularini ishga soladi. O'yining qiziqarli, jonli va samarali o'tishi ko'proq o'qituvchining mahoratiga bog'liqidir.

Har bir o'yin bolalar uchun qiziqarli va muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. O'yinda beriladigan savollar ham, unga qaytiriladigan javoblar ham juda qisqa, aniq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Didaktik o'yinlar soddadon-murakkabga prinsipida, o'quvchilarning aqliy ishlashini faollashtirishga mo'ljalab tuzilgan. Bunda o'quvchilarning tafakkurini, fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini o'stirishga ham jiddiy ahamiyat berilgan. Odatda o'quvchilar an'anaviy darslarda olgan bilimlar yetarli darajada puxta bo'lmaydi va o'quvchilar ularni muayyan sharoitda tadbiq qila olmaydilar. Chizmachilik darslarida didaktik o'yinlar qo'llansa, o'quvchilarning bilimi mustahkam bo'ladi, degan umiddamiz. Chunki o'yinda faol qatnashadigan o'quvchi bilimni hayajon va zavq-shavq bilan o'zlashtiradi. Bunday bilim puxta bo'lib, o'quvchining xotirasida ko'p yillar saqlanadi va kezi kelganda o'quvchi uni eslaydi va amalda qo'llaydi.



Kim tez tiklaydi o‘yini. O‘yining sharti. Chizmaning biror bir sabab bilan xiralashgan, uzilgan joylarini tiklab o‘qish. Barcha o‘quvchilarga bemalol ko‘rinadigan kattalikdagi plakatlar. Plakat-chizmalarning bittasida faqat geometrik sirtlar ko‘rinishining biror qismi, ikkinchi plakatda esa detal ko‘rinishlarining biror qismi chizilmagan bo‘ladi. O‘yining tafsiloti. Avval o‘quvchilari bilan oddiy geometrik sirtlarni chizmada tasvirlash bo‘yicha mashq o‘tkaziladi. Bunda silindr, konus, prizma, piramida, shar, parallapiped va hokazolarning ko‘rinishlari to‘liq chiziladi va bir parcha qog‘ozni jismlar sirtining suv to‘kilgan yoki o‘sha joyi yirtilgan deb faraz qilinadi. So‘ngra o‘quvchilardan chizmaning o‘sha joylarini qanday qilib tiklash mumkinligi so‘raladi. Keyin ikkita, uchta geometrik jism sirtlarining yig‘indisidan tuzilgan detalning chizmasiga ham qog‘oz parchasini qo‘yib, yuqoridaq mashq takrorlanadi. Geometrik jism sirtlari qo‘yilgan joylarga qog‘oz parchasi qo‘yilsa, bir yo‘la ikkita geometrik jism sirtining qismlarini tiklashga to‘g‘ri keladi.

So‘ngra detal ko‘rinishlarining ayrim joylarini qog‘oz parchasi bilan to‘sib, o‘sha joylarni tklash taklif qilinadi. O‘quvchilar chizmalarni tiklashda qiyalsalar, qog‘oz parchasini bir oz vaqt olib turiladi. O‘qituvchi o‘yining oxirida faol qatnashgan va ishni aniq bajargan o‘quvchilarni g‘olib deb e’lon qiladi.



## MANZARA JANRIDA KOMPOZITSIYASINING YARATILISHI

Qalandarova Shodiya Ergashboy qizi

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi 21-sod  
maktabning Tasviriy san’at fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Manzara janrida kompozitsiyasining yaratilishi” va kompozitsiya yaratgan olimlar va kompozitsiya yaratish bo‘yich ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kompozitsiya, interyer, fazo, atrof-muhit, vaqt.

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozitsiyasi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko‘rib chiqaylik. Buning uchun kompozitsiyaning son bog‘liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o‘taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o‘lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o‘lcham tomonlarining o‘zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug‘lik manbaining holati, soya-yorug‘ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug‘ning nisbiy muvozanati, shuningdek assosiy rang dog‘lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob‘yektlar bo‘laklarining o‘zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug‘, o‘lcham) kompozitsiya unsurlarining fazodagi ko‘rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Yuqorida keltirib o‘tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilardir. Ularni o‘lchash va sanab ko‘rsatish mumkin. Kompozitsiyada qancha narsa ishtirot etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko‘rish orqali qabul qilish mumkin bo‘lgan belgilarni kompozitsiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o‘z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o‘tilgan vositalardan foydalanib, o‘z asari g‘oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko‘rsatib beradi. Sondagi kompozitsiya sifatini ta‘minlovchi, fikrni to‘liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmunikompozitsiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o‘lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylikdir. Bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta‘minlaydi. Natijada asar kompozitsiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma’no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozitsiya tamoyillarini ustalik bilan qo’llab, har tomonlama yutuqqa erishadi, kompozitsiya bekamu-ko‘st bo‘ladi. Ma’lumki, kompozitsiya tamoyillari uch xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bularidan birinchisining belgisi – kompozitsiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) rivojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinat chuqurlik qolgan ikkisiga bo‘ysungan holatda ishtirot etadi. Bunday kompozitsiya amaliy – bezak kompozitsiyalarida ko‘p qo’llaniladi, hajm-fazoviy kompozitsiyalarida esa shakllar uch o‘lchamli holatlarda yaratiladi.

Tarixdan ma’lumki o‘tmishning ulug‘ rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o‘z asarlarini yaratishda umumqoida bo‘lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko‘rinishlarini qo’llab, yuksak natijalarga, go‘zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozitsiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo‘l kelgani ham ma’lum.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo‘lgan va uni o‘z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo‘yqalam ustalari ko‘p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o‘tsak o‘rinli bo‘ladi. Leonardo da Vinci. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O‘zbek rassomlaridan tasviriy san’atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag‘omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo‘jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G‘oziyev va boshqa ko‘plab ijodkorlarni bemalol kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o‘quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Ma’lumki, interyer ko‘pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalilanadi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko‘p qo’llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo‘lgan natyurmort kompozitsiya asarlarida va shuningdek o‘quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi.



Unda esa albatta kompozitsiyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga riosa qilinishi taqoza etiladi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko’rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozitsiyaning biror-bir unsuri e’tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriy jixatlari bo’sh, ta’sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozitsiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtini, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovr aniq, tiniq ko’rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqur va qiziqarli chiqishi natyurmort qo’yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya’ni interyerning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog’liqidir. Chunki ular orqali kompozitsiya g’oyasini yanada teranroq oolib berish imkoniyati tug’iladi. O’sha har biri o’zicha muhim bo’lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to’liq badiiy tarzda ifodalash mumkin.

Odam qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozitsiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko’rsatib beriladi. Chunki ular kompozitsiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta’sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma’lumki o’quv mashqlaridan, kompozitsiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Yuqorida keltirib o’tilgan ma’lumotlardan shu narsa ayon bo’ladiki, demak – interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o’ynovchi, o’zaro bir-biri bilan bog’liq holda tasvirlanadigan zarur kompozitsiyaning faktorlari ekan.

**Foydalanimanadigan adabiyotlar:**

1. N.Abdullaev. San’at tarixi. 2 qismlik. I – qism. – Toshkent, 1987.
2. N.Abdullaev. San’at tarixi. 2 qismlik. II – qism.– Toshkent, 2001.



## TASVIRIY SAN'ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Sabirova Maqsuda Reyimberganovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 21-sون мактаб  
Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Tasviriy san'atning o'rni va ahamiyati, tasviriy san'atning turlari” haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, grafika, haykaltaroshlik, portret, avtoportret, manzara, natyurmort, tarixiy janr, botal janr.

### Tasviriy san'atda rang tasvirining o'rni va ahamiyati

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istikclarini, ularning go'zallik va xudbinlik, olivjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi. Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmis odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga hayotga yanada keng va atroficha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rang tasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ohib berishda rang muhim o'rinn egallaydi.

Rang tasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jaz, dastgohli turlarga bo'linadi.

Monumental rang tasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi. Mo'jaz san'at asarlari Turli mamlakatlarda, shu jum ladan, O'zbekiston hududida judahamqadim zamondan taraq qiy etib, qadimiyo qo'lyozmalar ga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgohli rang tasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o'rnatilib ishlanadi.

Grafika – lotincha «grafo» so'zidan olingan bo'lib, «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviyrasmlar va hakozolar kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san'atturlaridan biri. U lotincha «skulpo» so'zidan olinib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o'yish, taroshlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

### Tasviriy san'atning turlari.

Portret – rangtasvir janrlariichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ohib beradi.

Portret janrida ishlangan tasvirisan'at asarlari bizga musavvir Yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.



Avtoportret – portret janrining ko’rinishlaridan biri bo’lib, musavvir o’zining tashqi qiyofasini o’zi tasvirlaydi.

Manzara – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko’rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni

tog’u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo’lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O’. Tansiqbeyevning «O’zbekistonda mart», «Jonajon o’lka», «Mening qo’shig’im», N. Kashinaning «Tog’də bahor», Z. Inog’omovning «Arpa o’rimi», «Choyga», R. Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug’bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort – fransuzcha so’z bo’lib, «jonsiz tabiat» degan ma’noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosaninsonni o’rab turgan atrof muhitdiginarsalar, turmushdaqo’llanadiganbuyumlar, oziq- ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o’z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uningxarakterli xususiyatlarini, voqeа qaysi davrda ro’y berayotganligini ham ko’rsata oladi.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o’tmishda bo’libo’tgan voqeа-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko’rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr – «botal» fransuzcha so’z bo’lib, «jang», «urush» ma’nosini bildiradi. U jang manzaralarini o’zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o’rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o’z ona Vataniga bo’lgan cheksiz muhabbatni ifodalanadi.

### Foydalanimgan adabiyotlar.

1. N.Abdullaev. San’at tarixi. 2 qismlik. I – qism. – Toshkent, 1987.
2. N.Abdullaev. San’at tarixi. 2 qismlik. II – qism.– Toshkent, 2001.
3. B.Asimova. Natyurmort tuzi shva tasvirlash metodikasi. - Toshkent: O’qituvchi, 1984.



## АМАЛИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРДА ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

**Samandarova Durdon Inoyat qizi**  
Urganch tuman 19-son umumiy o'rta ta'lim maktabi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lif tasviriy san'at darslarda yangi pedagogik texnologiyani samarali qo'llash haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi-novator bo'lishi, oldinda borishi, ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy

Замонамизнинг энг муҳим талаби ёшларни ҳар томонлама жисмонан бақувват, ақлан етук этиб камол топтириш ва жамиятда соғлом турмуш тарзини шакллантиришдан иборат. Зеро, ҳар қандай ривожланган жамиятнинг асосини етук, озод ва баркамол инсон ҳамда соғлом турмуш тарзи ташкил қиласи. Мамлакатимиз ҳар бир соҳада улкан-улкан ютуқларга эришиб келмоқда. Бу борада ёшларга кенг имкониятлар яратилганилиги ўз самарасини бермоқда. Мамлакатимизда амалга оширилаётган барча ижобий ўзгаришлар замирида ҳар томонлама баркамол – жисмонан соғлом, ақлан етук, нафақат кўплаб билимларни, ҳозирги даврда талаб катта бўлган касб ҳунарларни эгаллаган, айни пайтда, мустакил ва ижодий фикрлашга қодир, интеллектуал салоҳияти юксак ёш авлод тўғрисида ғамхўрлик қилишдек устувор мақсад мужассам экани табиийдир. Шунинг учун ҳам умумтаълим мактабларида тасвирий санъатнинг яхши йўлга қўйилиши учун даставвал ўқитувчи боланинг психофизиологик ҳолатларига эътибор қаратиши керак бўлади. Болаларнинг туғма қобилият соҳибларини тўғри тарбиялашда, уларнинг маънавий камолотини шакллантириш, тасвирий санъат саводхонлигини ошириш, миллий ва умумбашарий қадриятлар асосида уларнинг қизиқишлигини ривожлантириш, эстетик онгни тарбиялаш, экологик маданиятни ўстириш учун тасвирий санъат саводхонлиги муҳим аҳамият касб этади. Энг асосий масала шуки, ўқитувчи ўзи ўқитадиган фани бўйича чукур билимга эга бўлиши ва ўзида фанига деган ва жажжигина болакайларга деган муҳаббати бўлиши керак. Шундагина ўқитувчи ўкувчиларга эстетик жиҳатдан таълим тарбия беришда, амалий машғулотлар олиб боришида уларга расм чизиш сирларини ўргатишда чарчамайди. Лекин ўқитувчи ўкувчиларга фақатгина ўз фанини чукур билиши ва ўзлаштириши билангина чекланиб қолмасдан замонавий педагогик технологиялардан ва интерактив методлардан фойдаланиб дарс ўтиши мақсадга мувофиқдир. Ўкувчиларнинг дарсга бўлган қизиқишлигини ривожлантириш ва дарсга деган иштиёқини пайдо қилиш, ўкувчиларни мустакил ишлашига ва янги билим сирларини очишга, энг кераклисини, аҳамиятлisisini ва максадга мувофиқ деб топганларини чукур тушинтириб билиши керак. Ўрганилаётган янги материал ўтган мавзуу билан қанчалик даражада боғлик бўлса ўкувчилар учун шунчалик қизиқарли бўлади. Мактабда бошланғич синфларда тасвирий санъатга деган қизиқишлигини уйғотишнинг бир қанча йўллари бор:

- тасвирий санъат мазмунини болаларнинг онгига сингдириш;
- белгили санъат арбоблари яъни рассомларнинг ижоди ва фаолияти ҳақида давра сухбатлари ва учрашув кечалари ташкил қилиш;
- ўкувчиларнинг озгина бўлсаям ишларини кўрсатиб рагбатлантириб бориш, уларнинг ибратли ишларини синфдаги ўкувчиларга кўрсатиб бориш;
- қизиқарли бўлган асарлар ҳақида ҳикоя ва сухбат ўтказиш;
- Ютуқларга эга бўлган ўкувчиларнинг ишларидан кўргазмалар ташкил қилиб туман, обласстардан фойдаланиши; (кроссворд ва ҳар хил бошқатирмалар)
- ҳар бир дарсда ўқитувчи ўкувчиларга янги билим ва тажрибалар бериши;
- ўқитувчи томонидан назарий ва амалий машғулот жараёнида интерактив методларнинг ҳар хил машқларидан фойдаланиши; (кроссворд ва ҳар хил бошқатирмалар)
- ўкувчиларнинг ижодий иш олиб боришида кўпроқ ўзлари учун қизиқли бўлган мавзуларни тавсия қилиш; (эртаклар, мультфильм қаҳрамонлари, қушваҳайронлар, экспурсия мавзусида расм чиздириш) Тасвирилаш фаолияти учун қизиқли ва мазмунли мавзулар танлаш ўкувчиларнинг тасвирий санъатга деган қизиқишлигини янада орттиради. Шу боис ўтказилган кузатиш натижалари яъни мактабларда олиб борилган кузатиш натижалари шуни кўрсатадики ўкувчилар қизиқтирган мавзулари асосида расмлар чизганда уларнинг



ишларида албатта сифат ва натижа бўлади. Бунда айниқса композицион фаолият ахамиятли хисобланади. Асосан байрамларга бағишланган расмларни, табиат кўринишларини, «Она диёрим», «Менинг автомобилим», «Ҳайвонот боғида» ва бошқа мавзулар болалар учун жуда қизиқарли бўлади. Бошланғич синф ўқувчиларининг табиатга қизиқишини орттиришда уларга табиат кўринишлари тасвириланган рассомларнинг асарларидан репродукциялар кўрсатиш ҳам катта ахамият касб этади. Репродукцияларни ўқувчиларга кўрсатиб унинг мазмунини айтиб бериш билан чекланиб қолмасдан, асарнинг тарихи, асар автори ҳақида ҳам айтиб ўтиш ўринлидир. Ўқувчилар амалий машғулотлар жараёнида реал тасвирилашга ҳаракат қиласди. Амалий машғулот жараёнида ўзлари чизган расмларининг натижаларини кўриб қувонади ва ўзларини янгилик яратадек сезади. Буларни кўриб биз ўқитувчилар уларни рағбатлантириб борсак албатта уларда янада фанга бўлган қизиқишилари ортиб боришимиз сўзсиз.



## SHARQ ME'MORCHILIK SAN'ATI. MINIATYURA SAN'ATI TARIXI MAVZUSINI O'RGANISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Turdiyeva Gulniso Amonovna  
Navoiy shahar 5-IDUM tasviriy san'at fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Sharq me'morchilik san'ati, miniatyura san'ati va uning tarixi mavzusini o'rganish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ushbu maqolada o'z aksini topgan.

**Kalitso`zlar:** muzey, kutubxona, kitobatsan`ati,sag'ana, minora, masjid, saroy, qasr, karvonsaroy, ko'shk, Sardoba, koshin, peshtoq....



Mustaqilligimiz sharofati bilan o'zbek xalqi o'zligini taniy boshladi. Uning boy tarixi, madaniyati o'rganilib, yurtimiz jahonning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo`lgani isbotlanmoqda.Qadimgi nodir qo'lyozmalar ichida bizgacha saqlanib kelgan nafis, mo'jaz rasmlar alohida o'ziga xos go'zallik, nafosat olamiga ega. Ulardagi yorqin ranglar, nozik chiziqlar va ajoyib mutanosiblik asrlar o'tsada barchamizga estetik zavq bag'ishlaydi. Shuning uchun ham bu rassomlar obidalari jahonning eng nufuzli muzey, kutubxona va majmualarda asrabavaylanmoqda. Jahon tasviriy san'ati xazinasida munosib o'rinni olgan miniatyuralar - Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosi. U an'anaviy kitobat san'atining tarkibiy qismi bo'lib, qadimgi nodir qo'lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur

asarlaridagi insonparvarlik g'oyalari, oliyjanoblikka bo`lgan intilish, go'zallik to`g'risidagi tasavvurni ifodalashga ham xizmat qilgan.

Yaqin va O'rta Sharq madaniy markazlari bo`lmish Bog'dod, Tabriz, Samarqand, Buxoro, Hirot, Sheroz kabi shaharlarda X-XIX asrlar davomida maxsus miniatyura maktablari mavjud bo'lib, ba'zan yuksak darajada rivojlangan, ba'zan esa tanazzulga yuz tutgan. Miniatyura nodir qo'lyozmalar ziynatlari bo`lmish shams, zarvarak, unvon, hoshiya naqshi, lavha, xotima kabi bezaklar bilan umumiy uslubiy uyg'unlikka ega.

Samarqanddagi Afrosiyob tepaligi, Buxorodagi Varaxsha, qadimiy Xorazimda Ayoz tepa, Burgut qal'a singari ko'hna shahar, qal'a xarobalari, Vatanimiz tarixini ming-ming yillarga borib yetishidan dalolat beradi.

Amir Temur davri va undan keyingi davrlarda Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Turkiston, Shahrisabz kabi yirik shaharlarda ulkan me'moriy inshootlar bunyod etilgan.Saroylar, madrasalar Jom'e masjidlar qurilgan. Amir Temur va uning avlodlari Turon zamin hududida ko'plab bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini olib borishgan. Madrasa, maqbara, sag'ana, minora, masjid, saroy, qasr, karvonsaroy, ko'shk, Sardoba, koshin, peshtoq, mehrob, ark, chorus, gumbazlar barpo etishgan.Tasviriy san'at sharq mamlakatlarida miniatyura va amaliy ko'rinishda hamda me'morchilikda rivojlangan. Miniatyurachi rassomlarning asarlaridan bir qismini olib ko'chirib chizishham mumkin. Chunki ko'chirib chizish orqali miniatyura san'atining nozikligini, ranglarning nafisligini his qiladi o'quvchi.

Tasviriy san'at darslarida nusxa ko'chirishchunalohida soat ajratilgan.Ko'chirganda rasmkichkina bo'lib qolmasligi, balki format qog'oz varag'ida chiroqli joylashishiga alohida e'tabor qaratishimiz lozim. Bunga miniatyuradagi gullar, toshlar, daraxtlar, hayvonlarning ko'rinishi, tog'lar, qirliklar, odamlar va hakozalarni olishimiz ham mumkin.



Ko`chirish jarayonida, albatta rasm chizuvchi uning rangini, kompozisiyasini to`g`ri belgilab olishiga to`g`ri keladi. Aks holda, hech qanday ish meyorida kechmaydi va surat o`z holiga o`xshamaydi. Ko`chirishdan maqsad shu uslubni bilib olish, ranglarni to`g`ri qo`yishni o`zlashtirishdir. 6-sinf darslarida ushbu mavzuni o`rganish bo`yicha tashkil etilgan mustahkamlash darsida qo`llagan dars usullarim va ularning samaradorligi haqida qisqacha to`xtalib o`tmochchiman. Nazariyam `lumotlarnimustahkamlashuchun “**Ekspress test**” usuli eng samarali usuldir. Bunda o`quvchilarga testlarning javoblarini tanlash uchun variantlar ko`rsatilgan tarqaqtalmalar tarqatiladi. Monitorda ko`rsatilgan testlarga tez va to`g`ri javobni ko`rsatgan chaqqon va zukko o`quvchilar baholanadi.

**“Botqoq va dengiz” usulidan** darsning mustahkamlash qismida foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o`quvchilar 2 guruhga ajratilib, o`qituvchi tomonidan tayyorlangan savollarga javob toppish bo`yicha bahslashishadi. Bahsda g`olib bo`lgan guruhga “Dengizlar hukmdori” nishoni, mag`lub bo`lgan guruhga esa “Botqoq egasi” nishoni berilib, guruh a`zolariga botqoqni gulzorga aylantirish bo`yicha topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar to`liq bajarilgandagina ular to`la “botqoq” dan xalos bo`lishadi. Namuna uchun savollar:

1. Hoshiya san`atning qaysi turida ishlatiladi?
2. Sharq miniatyurachi rassomlari kimlar?

Farzandlarini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusidir. Bu orzuni amalga oshirishda ma`rifat, ma`naviyat va madaniyat ota-onaga ko`mak beradi. Biz o`qituvchilar ham bu borada ota-onaga yo`ldosh bo`lmog`imiz lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov R. Maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. T.: «Fan», 2004.
2. Ziyonet

#### “Ekspress test” usuli

- 1. Qaysi qatorda K.Behzod yashab ijod etgan shaharlar to`g`ri ko`rsatilgan?
  - A) Andijon, Istanbul
  - B) Astrolob, Qobul
  - V) Buxora Dehli
  - D) Hirot, Tabriz
- 2. Tasviriy san`atning miniatyura janrida nimalar tasvirlanadi?
  - A) naqshlar.
  - B) Geometrik shakllar
  - V) Tabiat ko`rinishlari
  - D) Hammasi to`g`ri
- 3. Suvda eriydigan buyoqlar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?
  - A) Rangli qalam, guash
  - B) Akvarel, guash
  - V) Moybuyod, akvarel
  - D) Rangli qalam, akvarel bo`lmaydi.



## TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANIDAN KO'RGAZMALI QUOLLAR TAYYORLASH.

Xolova Feruzaoy Murodnazarovna

Qiziltepa tumani 21-umumta'lim  
maktabi tasviriy san'at o'qituvchisi

**Kalit so'zlar:** perspektiva, kompozitsiya, natyurmort, narsaning fazoda joylashishi, yorug'-soya, manzara, proeksiya, qirqimlar, kesimlar.


O'quvchilar metodik ko'rsatma asosida kichik guruhlarga bo'linib qanday ko'r gazma, qaysi yo'nali shda tayyorlash haqida maslahatlashib oladilar. Guruh a'zolari turli materiallardan tasviriy san'at va chizmachilik mavzulariga oid ko'r gazmalar tayyorlashga kirishadilar. Bunda vatman qog'ozzi, guash, akvarel bo'yog'i, elim, qaychi, chizg'ich, qalam, mo'yqalam, suv idish, rangli yopishqoq tasmalar va skotch anjomlari kerak bo'ladi. O'quvchilar ish jarayonida va taqdimotda tasviriy san'at va chizmachilikdan egallagan bilim malaka va ko'nikmalarini amalda ko'r gazma tayyorlash orqali qo'llay olish kompetentliklarini namoyon etadilar. Tasviriy san'at va chizmachilik faniga kerak bo'ladigan ko'r gazmali qurollar turlicha bo'lib, u qog'ozga ishlanadigan yoki hajmli ko'rinishda bo'ladi. Masalan perspektiva, kompozitsiya, natyurmort, narsaning fazoda joylashishi, yorug'-soya, manzara, proeksiya, qirqimlar, kesimlar, ko'rinishlar, interfaol metodlar mavzulari uchun qog'ozga ko'r gazmali qurol sifatida tayyorlansa, detallar va geometrik shakllar mavzularini hajmda ham tayyorlash mumkin. Amaliy mashg'ulot topshirig'ini tinglovchilar mavzularidan birortasini tanlagandan so'ng bir variant hajmda va yana bir variant qog'ozda tayyorlaydilar. Kichik guruhlarda turli ko'r gazmalar tayyorlangandan so'ng, guruh a'zolaridan biri amaliy ish bo'yicha taqdimot qilib beradi.

**Kim tezroq yasay oladi o'yini. O'yining sharti.** Simdan yasalgan detallarning ko'rinishlariga qarab ularning modellarini yasash.

**Maqsad.** o'quvchilarning chizmalarini o'qish ko'nikmalarini, fazoviy tafakkurini, ko'z bilan chamalash qobiliyatini takomillashtirish, turli narsalar yasash mahoratini oshirish.

**Jihozlar.** Simdan yasalgan detallarning o'quvchilarga yaqqol ko'r inadigan kattalikdagi chizilgan ko'rinishlari va yaqqol tasvirlari. Alyuminiy yoki miss sim bo'laklari.

1-rasm



**O'yining tafsiloti.** Simdan yasalgan detallarning ko'rinishlari tasvirlangan plakatni doskaga lib, yaqqol tasvirlari esa to'sib qo'yiladi. Barcha o'quvchilarga sim bo'laklari tarqatiladi va simdan yasalgan detallarning ko'rinishlariga qarab, ularning modellarini yasash tavsiya etiladi. Simdan yasaladigan model aslidan kattaroq yoki kichikroq bo'lishi, uning qismlari orasidagi nisbatlar ham taxminiy olinishi, sim bo'lagining ortib qolgan qismini kesib tashlashi yoki buklab qo'yish mumkin. O'quvchilar modelni yasashda qiyalsalar, detallarning yaqqol tasvirlari biroz vaqt ochib qo'yiladi. O'qituvchi o'yining oxirida ishni tez va to'g'ri bajargan o'quvchilarni g'olib deb e'lon qiladi.

**Eslatma.** O'yinni o'tkazishdan oldin o'quvchilar bilan simdan har xil burchaklar, kvadrat,




parallelgram, romb, aylana va hakozolarning modellarini mashqini tashkil etish ma’qul. So’ngra ikkita va uchta tekisliklari bo’lgan detallarning modellarini yasab, ularning ko‘rinishlarini chizish yaxshi natija beradi.

**O‘yinning sharti.** Plastilindan model yasash. Detallarning ko‘rinishlariga qarab plastilindan ularning modellarini tayyorlash.

**Maqsad.** O‘quvchilarga yumshoq materiallar bilan ishslashni o‘rgatish. Ularning qo‘l xarakatlarini, chizmalarini o‘qish ko‘nikmalarini, ko‘z bilan chamalash malakalarini va fazoviy tafakkurini takomillashtirish.

**Jihozlar.** Detallarning ko‘rinishlari tasvirlangan plakatlar yoki tarqatma materiallar. Har bir o‘quvchi uchun eng kami bita modelga etarli plastilin va bir parchadan latta.

**O‘yinning tafsiloti.** Uncha murakkab bo‘lmagan detallarning ko‘rinishlari tasvirlangan chizmalar sinf doskasiga ilib qo‘yiladi va o‘quvchilarga detallarning manna shu ko‘rinish lariga qarab plastilindan ularning modellarini yasash kerakligi aytildi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining o‘ziga ajratilgan detalning modelini mustaqil bajarishini kuzatib turadi. Modelni esa mashtabga rioya qilmay detalning nisbatlarini taxminan saqlagan hamda ixtiyoriy kattalikda yasashlari mumkin.




O‘qituvchi o‘yinning oxirida xama modellarni ko‘rib chiqib, eng yaxshi modellarni tayyorlagan o‘quvchilarni g‘olib deb e’lon qiladi. O‘yinni o‘tkazishdan oldin o‘quvchilarga plastilindan oddiy geometrik jismlarning modellarini yasashni o‘rganish tavsiya etiladi. Keyin ikkita va uchta geometrik jismlardan hosil bo‘lgan detallarning modellarini yasash mashq qilinadi.

**O‘yinning sharti.** Chizmaga o‘lchamlar qo‘yish. Detalning ko‘rinishlari tasvirlangan chizmaga tez va aniq o‘lchamlar qo‘yish.

**Maqsad.** O‘quvchilarda chizmalarga o‘lchamlar qo‘yish malakasini qilish. Ularga detallarni sinchiklab kuzatishni, ularning texnikadagi roli, vazifasi, ish holatlarini tushuntirishi, detallarga ishlov berish yo‘llarini o‘rgatish.

**Jihozlar.** Sinfdagи barcha o‘kuvchilarga etarli o‘lchamsiz har xil chizmalar. Ular tushda, o‘lchamlar qoldirish uchun etarli joylar qoldirib ishlangan bo‘lishi kerak. O‘lcham qo‘yish uchun yumshoqroq qalam va o‘chirg‘ichlar. O‘quvchilar chizmalarga o‘lchamlar qo‘yishda qiynalsalar, ularga yordam tariqasida ko‘rsatish uchun bir necha o‘lchamlari qo‘yilgan katta formatdagi – plakat chizmalar.





**O‘yinnig tafsiloti.** O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘lchamlar qo‘yilmagan har xil chizmalarni tarqatadi va tez o‘lchamlarni qalamda qo‘yishni tavsiya etadi. O‘quvchilar bu ishni bajarishda qiyalsalar o‘lchamlari qo‘yilgan plakat chizmani sinf doskasiga ilib qo‘yiladi. O‘quvchilar ishni bajarayotganlarida o‘qituvchi ularga chizmalar orasidagi aylanalarning diametrлари va radiuslariga doir belgilarni qo‘yishni uqtiradi. O‘quvchilarni chizmalarni chizg‘ich bilan o‘lchab, o‘sha joylarning o‘ziga qiymatlarini yozib qo‘yishlari lozim. O‘qituvchi hamma chizmalarni yig‘ib oladi va ishni tez hamda to‘g‘ri bajargan o‘quvchilarni g‘oliblar sifatida e’lon qiladi.

Eslatma. Bu o‘yin o‘tkazishdan oldin chizmalarga o‘lchamlar qo‘yishi mashq qilish maqsadga muvofiqdir. Oldin tekis detallarning chizmalariga keyin oddiy geometrik jismlarga va nihoyat, chizmalarni asta sekin murakkablashtirib borib, o‘lchamlar qo‘yilsa, o‘quvchilar o‘lchamlar qo‘yish qoidalarini yaxshi bilib olishlari mumkin.

# **“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”**

**(14-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000